

## LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK

*Xushvaqtova Rohila Jabbor qizi*

*Ayubova Munavvar Gulmurod qizi*

*Karimjonova Hadicha Abdulatip qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari*

**Annatatsiya:** Bu maqola madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rGANADIGAN, o'zaro ta'sirlarni va ularning jamiyatdagi roli, xususiyatlarini tahlil qiluvchi fan sohasi haqida ma'lumot beradi. Ushbu maqolada madaniyatshunoslik va tilshunoslikning bog'lanishida yangi imkoniyatlar kelib chiqish tarixi va madaniyatini o'rGANUVCHI olimlar haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Lingvomadaniyatshunoslik, til va madaniyat, kommunikatsiya, madaniy identifikatsiya, madaniy kodlar, til o'rgatish, madaniy yondashuv, til va madaniyat aloqasi, tilshunoslik, madaniyatshunoslik.

### LINGUISTICS

**Abstract:** This article provides information about the field of study that examines the relationship between language and culture, their mutual influences, and their roles and characteristics in society. This article creates new opportunities in the intersection of cultural studies and linguistics, with a history of scholars who have studied language and culture.

**Key words:** Linguocultural studies, language and culture, communication, cultural identity, cultural codes, language teaching, cultural approach, language and culture relationship, linguistics, cultural studies.

### KIRISH

Lingvomadaniyatshunoslik XX - asrning o'rtalarida alohida fan sifatida shakllana boshladi. Lingvomadaniyatshunoslik - lingvistika va madaniyatshunoslikni birlashtirgan, hamda til va madaniyatni o'rGANUVCHI fandir. Lingvomadaniyatshunoslik (yoki lingvistik madaniyatshunoslik) – bu til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rGANADIGAN fan sohasidir. U tilni faqat

kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki madaniyatning asosiy tarkibiy qismi sifatida tahlil qiladi. Lingvomadaniyatshunoslik, tilning inson jamiyatidagi o'rni, madaniyat bilan o'zaro aloqasi, til orqali milliy va etnik identifikatsiya va boshqa ko'plab madaniy omillarni o'rganadi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi XX - asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Dastlabki davrda tilshunoslari tilni faqat lingvistik va grammatik jihatdan o'rganishgan, ammo XX - asrning ikkinchi yarmidan boshlab til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar muhim ahamiyat kasb etdi. Bu soha strukturalizm, poststrukturalizm va boshqa tilshunoslari maktablarining ta'siri ostida rivojlandi. Lingvomadaniyatshunoslikning rivojiga ilmiy metodlarning o'zgarishi, shuningdek, antropologiya va madaniyatshunoslari kabi sohalarning lingvistik tadqiqotlar bilan integratsiyasi sabab bo'ldi. Shu bilan birga, tilning jamiyatdagi roli, etnik va milliy taffovutlarni aks ettirishdagi o'rni va til orqali madaniy qiymatlarning o'zgarishi haqida yangi nuqtai nazarlar paydo bo'ldi. Edward Sapir (1884–1939) – lingvistik antropologiyaning asoschilaridan biri bo'lib, til va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ta'kidladi. Uning fikriga ko'ra, til faqatgina axborot almashish vositasi emas, balki madaniyatning markaziy elementi hisoblanadi. Benjamin Lee Whorf (1897–1941) – Sapirning shogirdi bo'lган u til va dunyoqarash o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganib, "lingvistik relativizm" nazariyasini ishlab chiqdi. Uning fikriga ko'ra, tilning struktura va leksikasi insonlarning fikrlash tarzini shakllantiradi va madaniy farqlar tilni qanday gaplashishimizga ta'sir qiladi. Roman Jakobson (1896–1982) – til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda muhim rol o'ynagan boshqa bir olimdir. U tilning kommunikativ funksiyalarini tahlil qilish bilan birga, tilning madaniyatga qanday xizmat qilishi va ularni qanday aks ettirishini ko'rib chiqdi. Clifford Geertz (1926–2006) – u madaniyatni "menejment" va "symbolik" sifatida tasvirlab, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini yanada chuqurroq o'rganishga olib keldi. Uning "madaniyatni tushunish" dagi yondashuvi tilni madaniyatni anglash va yaratishda asosiy vosita sifatida ko'rsatadi. Lev Vygotsky (1896–1934) – u til va fikr o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. U tilning rivojlanishi va ijtimoiy o'zaro aloqalar orqali insonlarning madaniy tajribalarini qanday o'rganishlarini

tushuntirdi. Uning ishlarida tilni madaniyatning shakllanishida markaziy o'rinni tutishi ko'rsatiladi. Lingvomadaniyatshunoslikning o'rganilishi, tilning faqat grammatik va semantik jihatlarini emas, balki uning madaniy, psixologik va ijtimoiy funksiyalarini ham yoritadi. Bu soha tilshunoslikni jamiyatning boshqa sohalari bilan bog'lashga yordam beradi, til va madaniyatning bir-biriga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishga imkon beradi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, lingvomadaniyatshunoslik fani bugungi kunda juda rivojlanib bormoqda ayniqsa, til o'rganuvchilar uchun tillarni o'rganishda biz o'sha tilning madaniyati, urf-odati, shajarasi va shevasini chuqr o'rganishimizda bu fan bizga yordamga keladi, bu fan har ikkala sohani o'rganib, birinchisi madaniyat bo'lsa, ikkinchisi til haqidagi fandir. Lingvomadaniyatshunoslik o'zida madaniyat va tilni birgalikda mujassamlashtiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://images.app.goo.gl/mCFauhzqXnVH8Mh8A>
2. Рума.Р.У. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999;
3. Г.Абдурахмонов, А. Сулаимонов, Х.Холнеров,Ж.Омонтурдиев. Хозирги узбекадабии тили. Синтаксис. Тошкент, "Уқитувчи" 1979, -2086.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
5. Норман, Б. Ю. (2009). Лингвистическая прагматика (на материале русского и других славянских языков): курс лекции/БЮ Норман.